



1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi.

1. Imloviy jihatdan **to'g'ri** yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.
A) minnatdor, sunbula, tushinmoq
B) xusumat, islohot, bayanot
C) harorat, muallaq, qasamyot
D) navqiron, yumaloq, g'alayon
2. Qaysi javobda alohida ajratib ko'rsatilgan so'z **ko'chma ma'noda** qo'llangan?
A) To'garak mashg'ulotlari haftaning dushanba, chorshanba, juma kunlari o'tkaziladi.
B) Iqlim o'zgarishi xavfi kundan-kunga ortib borayotgani barcha davlatlar uchun muhim masala bo'lib qoldi.
C) Yoshlarga zamonaviy texnologiyalarni o'rgatish kelajagimizni muvaffaqiyatli qurishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.
D) U gapirmadi, ammo sovuq nigohi bilan hammasini menga aytganday bo'ldi.
3. Qaysi javobda o'zaro zid ma'noli so'zlar berilmagan?
A) mushkul – oson B) tekis – sekin
C) ziqna – saxiy D) mehr – nafrat
4. Qaysi javobda alohida ajratib ko'rsatilgan so'z **shakldoshlik** xususiyati ega?
A) Tabiat kuz faslida oltin libosga burkanadi.
B) Hosilni yig'ib olishda biz ham dehqonlarga yordam beramiz.
C) Dasturxonni shirin mevalar, pishiriqlar bilan bezatdik.
D) Odobli bola yoshi katta kishilarga salom beradi.
5. Qaysi gapdagi ajratib ko'rsatilgan so'z **ishonch** munosabatini ifodalash uchun xizmat qilgan?
A) Xususan, men ham bu dargohda o'n bir yil tahsil olganman, mana shu ustozlarning ishonchini qozonganman.
B) Aksincha, musobaqa tashkillashtirilsa, o'quvchilar yana ham ko'p kitob o'qishga intiladilar.
C) O'zbeklar Navro'z bayramidan oldin, albatta, umumxalq hashari o'tkazishadi.
D) Menga bildirgan ishonchingizni, balki, oqlay olmasman, ammo uddalashga harakat qilaman.
6. Qaysi gapda **vergul** tinish belgisi xato qo'llangan?
A) O'g'lim, sen hamisha oqizlarga ko'maklashishga, ularni qo'llab-quvvatlashga harakat qilgin.
B) Ko'rgazmada o'zbeklarning milliy liboslari, hamda milliy taomlari namoyish etildi.
C) Inson kelajakka intilib yashashi lozim, ammo o'tmishini ham unutmasligi kerak.
D) Biz, O'zbekiston yoshlari, Vatan ravnaqi uchun xizmat qilishga hamisha tayyormiz!
7. Berilgan gapda ishtirok etgan **ko'makchi** qanday mazmuniy munosabat ifodalagan? Asarni o'qishga kirishishingiz bilan ko'z o'ngingizda rangin manzaralar paydo bo'ladi.
A) vosita ma'nosi
B) holat ma'nosi
C) sabab munosabati
D) payt ma'nosi





8. Qaysi gapda **qo'shma fe'llar** mavjud?

- A) *Shubhasiz, Vatanimizning kelajagi yorug' va ertasi porloq.*
- B) *Bilim kaliti yordamida yo'llarida uchraydigan muammolarni yechib ketaveradilar.*
- C) *Kelajakning oltin kaliti turli sohalarda o'zini ko'rsata oladigan yoshlar qo'lida.*
- D) *Xalqimiz farzandlari bugun dunyoning eng taraqqiy etgan bilim dargohlarida ta'lim olib kelmoqdalar.*

9. Qaysi javobda **ma'nodosh so'zlar** berilgan?

- A) *bol, asal, shirin*
- B) *har xil, turfa, o'zgacha*
- C) *oyna, ko'zgu, deraza*
- D) *sovg'a, hadya, tuhfa*

10. Qaysi javobda **tovush almashishi** bilan bog'liq fonetik hodisa yuz bergan?

- A) *Qadim zamonlardan buyon serquyosh o'lkalarda oq matodan tikilgan kiyimlar urf bo'lgan.*
- B) *Did bilan kiyinish madaniyatning yana bir asosiy belgilaridan hisoblanadi.*
- C) *Kamtar kishi deb rostgo'y, odobli, tavozeli, kamgap insonlarni nazarda tutamiz.*
- D) *Tog'larning balandligi har xil, tog' oldilarida keng adirlar, xushmanzara daralar bor.*

2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi.

11. Berilgan qaysi gapda qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolikka **yo'l qo'yilmagan?**

- A) *Kasallikka eng yaxshi davo mehnat ekanligining barchamiz yaxshi anglashimiz maqsadga muvofiqdir.*
- B) *Hukmdor dehqonning vaqtning qanchalar qadrlashini ko'rib, uni afv qildi va unga tasannolar aytdi.*
- C) *Xulqini tarbiya qilgan qiz bola oltinga qimmatli, injuga qadrli bir boylikdirki, bu kabi qizlarga barcha orzu qiladi.*
- D) *O'sha kuni kechasiyoq qahramonliklar ko'rsatib, shon-u shuhrat taratib, o'qituvchilarimni, Otajon Azizovichni hayratda qoldirish niyatida safarga otlandim.*

12. Gapdagi so'zlarning mazmun va grammatik jihatdan bog'lanishi **to'g'ri** ko'rsatilgan javobni aniqlang.
Men musavvirlikning sirlarini o'rganishga va o'zlashtirishga astoydil bel bog'ladim, chunki menda unga havas uyg'ongan.

- A) *bel bog'ladim, musavvirlikning sirlari*
- B) *o'rganishga va o'zlashtirishga, o'rganishga bel bog'ladim.*
- C) *astoydil bel bo'ladim, men o'rganishga*
- D) *chunki uyg'ongan, unga havas*

13. Yasalish asosi fe'lga mansub bo'lgan **otlar** berilgan javobni belgilang.

- A) *pishiqchilik, suvoqchilik, kamchilik*
- B) *siniq, to'liq, to'kin*
- C) *terimchilik, atamashunos, chidam*
- D) *sog'inch, o'kinch, sevinch*





14. Qaysi gapdagi **tushum** kelishigini belgisiz **qo'llab bo'lmaydi**?

- A) Ikki hafta davomida erta tongdan qorong'i tushguncha loyni tashishdi.
- B) Saidiy o'zining ish bo'lmasiga kirib, deraza yonidagi kresloga o'tirdi-da, kitobni o'qiy boshladi.
- C) Onam har gal gilamni qoqqanda qop-qora chang ko'tariladi.
- D) Tushuntirishning hozirgi ilm-fan uchun, ayniqsa, tarix, falsafa hamda mafkura uchun qanchalar muhim ekanligini hayot ko'rsatmoqda.

15. Quyida berilgan gap haqida **to'g'ri** ma'lumot berilgan javobni aniqlang.

Hozirgi kunda fan jamiyat taraqqiyotini olg'a siljituvchi vosita bo'lib, millat dunyoqarashini shakllantirish, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashda alohida o'rin tutib kelmoqda.

- A) Yasama ot va fe'l qatnashgan.
- B) Kelasi zamon fe'li qatnashgan.
- C) Yasama ravish ishtirok etgan.
- D) Otlashgan sifat qatnashgan.

16. Quyida berilgan gap haqidagi **noto'g'ri** hukmni toping.

Bu kitobni kutubxonadan o'qigani olib kelgan edim, ammo ulgurmaganim uchun o'z vaqtida olib borib bera olmadim.

- A) Ish-harakatning sababini anglatgan bo'lak mavjud.
- B) Ish-harakatning daraja-miqdori anglatgan bo'lak mavjud.
- C) Ish-harakatning paytini anglatgan bo'lak mavjud.
- D) Ish-harakatning maqsadini anglatgan bo'lak mavjud.

17. Quyidagi gapda qaysi bo'laklar **uyushgan**?

Bu asar yozilgan paytlarda xalqimiz tarixini to'la va atroflicha o'rganish, o'tmishda o'tgan sarkardalar, amirlar va xonlar faoliyatiga xolis baho berish nihoyatda mushkul, xatarli ish edi.

1) kesim; 2) ega; 3) hol; 4) to'ldiruvchi; 5) aniqlovchi

- A) 2, 4 B) 2, 3, 5
- C) 1, 2, 3, 5 D) 1, 4, 5

18. Imloviy jihatdan **to'g'ri** yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.

- A) o'z-o'ziga, o'z-o'zicha, o'z-o'zligicha
- B) jon-jahd, jon-jondan, jon-quloq
- C) ko'r-ko'rona, ko'm-ko'k, kiber-xavf
- D) azal-azaldan, azaldan-azal, a'zoyi-badan

19. Sifatlovchi aniqlovchi **ishtirok etmagan** javobni aniqlang.

- A) Bahor osmonida chaqnasa chaqin, Ko'ksingdan otilar olovli nafas.
- B) Chinor soyasidan bahramand bo'lib, Turfa xil ertaklar to'qimoq oson.
- C) Qalbinning parchasi singmasa agar, Rozimasman, birov hadya etsa zar.
- D) Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor, Toshlarini yig'latgan dostonlaring bor.

20. **Shaxsi ma'lum gap** berilgan javobni toping.

- A) Oyim o'choq boshida qandaydir ish bilan band.
- B) Bu topshiriqni puxta bajarish kerak.
- C) Xalqimiz va Vatanimizga sadoqatli farzand bo'lamiz.
- D) Muammoni shu yo'l bilan hal qilsa bo'ladi.





3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi.

21. Berilgan gap haqida **xato** hukmni aniqlang.

Dunyoviy bilim va hunarlarga ega bo'lgan yoshlarimizning fazilatlari haqida soatlab gapirishimiz mumkin.

- A) Vositali to'ldiruvchining sifatlovchi aniqlovchiga tobelanishi yuz bergan.
- B) Sifatlovchi aniqlovchi va qaratqich aniqlovchi vositali to'ldiruvchilarga tobelangan.
- C) Sifatlovchi aniqlovchining qaratqich aniqlovchiga tobelanishi ro'y bergan.
- D) Ko'makchi yordamida shakllangan to'ldiruvchining fe'l kesimga tobelanishi kuzatilgan.

22. Berilgan parcha haqidagi **xato** hukmni toping.

Xusrav qog'ozning orqasiga shunday javob yozibdi: "Bu qilmishing uchun senga aytadigan arzon tahsin – ofarinim yo'q, ammo u odamni podshohlar yeydigan taomni pishirgani uchun emas, balki yomonlikni ravo ko'radigan ko'rnamakni mehmon qilgani uchun jazolayman".

- A) Uyushgan bo'lak ishtirok etgan.
- B) Ajratilgan bo'lak ishtirok etgan.
- C) Kirish so'z ishtirok etgan.
- D) Shaxsi ma'lum gap ishtirok etgan.

23. Tog'asining shu odati sababli u xonadondan bezib ketdi, endi qaytib kelmaslikka so'z berdi.

Ushbu gapda **olmoshlar** qaysi gap bo'lagi vazifasida **qo'llanmagan**?

- 1) kesim; 2) ega; 3) hol; 4) aniqlovchi;
5) to'ldiruvchi

- A) 1, 3, 4 B) 2, 3, 5 C) 1, 3, 5 D) 2, 4

24. *Shuni unutmangki, kitob bolani ham aqlan, ham ma'nan boyitadi, uni shaxs sifatida shakllantiradi, u bolaning hayotdagi eng yaqin tarbiyachisi, do'sti sanaladi.*

Ushbu gapdagi **fe'l kesimlar** haqida bildirilgan **to'g'ri** fikrni toping.

- A) Ushbu gapda qatnashgan fe'l kesimlarning barchasi yasama so'z bilan ifodalangan.
- B) Ushbu gapda qatnashgan fe'l kesimlarning barchasi bir xil nisbat ma'nosini ifodalagan.
- C) Ushbu gapda qatnashgan fe'l kesimlar buyruq-istak va xabar maylidagi fe'llar bilan ifodalagan.
- D) Ushbu gapda qatnashgan fe'l kesimlar sodda va murakkab fe'l kesimlar sanaladi.

25. *Ustozlarimiz bizga ushbu buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanishni, ularni e'zozlash, ularning ushalmagan orzularini amalga oshirishni har doim uqtirib kelishgan.*

Ushbu gapda ishtirok etgan gap bo'laklari haqidagi qaysi fikr **to'g'ri** emas?

- A) Olmosh bilan ifodalangan qaratqich aniqlovchi vositasiz to'ldiruvchiga tobelangan.
- B) Sifatdosh bilan ifodalangan sifatlovchi aniqlovchi vositasiz to'ldiruvchiga tobelangan.
- C) Olmosh bilan ifodalangan vositasiz to'ldiruvchi vositali to'ldiruvchiga tobelangan.
- D) Sifat bilan ifodalangan sifatlovchi aniqlovchi vositali to'ldiruvchiga tobelangan.





26. Qaysi javobda holli so'z birikmasi **ishtirok etmagan?**

- A) *Kelajagim obidasin qurgan insonman!*
O'sha jonman, o'sha qonman va o'sha shonman!
- B) *Buncha bino qo'yma zarrin choponlarga,*
Saratonda yaproq bo'lg'in dehqonlarga.
- C) *Qo'rqoqning ko'ziga tik qara, bolam,*
Biror so'z demasdan uzoqroq qara.
- D) *Bu hikmat sharhini o'yladim uzoq –*
Rostdan ona erur qiblai olam.

27. Qaysi gapda ko'makchi **to'ldiruvchini** shakllantirgan?

- A) *Yuz bergan tabiiy ofat tufayli*
uyimizning hamma yog'i buzilib ketib,
mutlaqo yaroqsiz holga kelib qolgandi.
- B) *Agar o'sha qizning ro'molchasiga*
solgan somon va qand orqali ularga
nima demoqchiligini bilmasang, bor
davlatingga o't qo'yaman!
- C) *Yuksak qoyalardan shiddat bilan*
qo'zg'algan burgut suruvdagi
qo'zichoqni ildi-yu ketdi.
- D) *Klinikaning bosh shifokori Mirsidiq*
Jalilov bir haftadan beri Namanganda
dam olardi.

28. Ravish hollari faqat **bir xil** so'z turkumi bilan ifodalangan gapni belgilang.

- A) *G'avvos apil-tapil o'rnidan turdi va*
dod solib arava orqasidan ergasha
boshladi.
- B) *Ona sekin eshikni ochib qaradi va*
berilib kitob o'qiyotgan bolasini ko'rib
xotirjam bo'ldi.
- C) *Aravalar birin-ketin yura boshlagach,*
G'avvos bir ilonni sekin Zavrakning
tizzasiga qo'ydi.
- D) *Onasi qizchasiga mehr bilan, sekin*
tushuntira boshladi.

29. Qaysi gapda ikki xil gap bo'lagi vazifasini bajargan **qo'shma yasama fe'llar** qatnashgan?

- A) *Sipohning tarqoqligi saltanatning*
kuchsizlanishiga olib keladi.
- B) *Matbuotda e'lon qilingan bu*
farmoyishdan so'ng korxonada tegishli
qaror qabul qilindi.
- C) *U xonaga yuzi qizarib kirib keldi-da,*
o'z o'rniga jahl bilan o'tirib gapira
boshladi.
- D) *Chin do'st ranjimaydi, agar ranjisa*
ham, do'stining uzrini qabul qiladi.

30. Qaysi gapda yasalish asosi yasama sifat bo'lgan **ot** ishtirok etgan?

- A) *Garchi bu ishga o'ta sezgirlik bilan*
yondashgan bo'lsa ham, natijasidan
biroz cho'chib turardi.
- B) *Bo'ron tinimsiz guvullab turganida*
yonginadagi arava tagidan o'tib,
Zavrak bilan Zulfiqor emaklab kirib
kelishdi.
- C) *Eshkakchilar ham ajablanib, bola*
ko'rsatgan tomonga qarashdi.
- D) *U qisiq ko'zlari bilan dengiz ufqiga*
boqar ekan, shodligini yashirolmay
toqatsizlanayotgan bolaning holatini
ham sezib turardi.

